



ResearchGate



SEMANTIC SCHOLAR



IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245



VOLUME 7, ISSUE 2, 2024



## TUYG'ULARINI GULGA O'RAGAN SHOIRA

Abdusharifova Sarvinoz Sobirjon qizi

Urganch davlat universiteti O'zbek filologiyasi talabasi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi o'zbek milliy adabiyotida o'zining she'rlari va hikoyalari bilan nom qozongan, ijodida Sharqona ruh yetakchilik qiladigan so'z san'atkori Durposhsho Xudaynazarova she'riyati va hikoyalari haqida so'z boradi.

### Kalit so'zlar

She'riyat, falsafiylik, badiiylik, tasavvuf, tarbiyaviylik.

Milliy o'zbek adabiyotimiz rivojida Xorazm adabiy muhit vakillarining hissasi katta. Bu ko'hna zamin qa'rida yulduz kabi porlagan olim, fozillardan tashqari o'z so'zлari, she'riyati bilan kishilar qalbidan joy olgan ijodkorlar, shoira va shoiralar, yozuvchilar o'rinni o'lgan. O'zbek zamonaliv sheriyatida o'zining falsafiy qarashlari, teran mushohadalari bilan kishini o'yga toldiradigan so'z salaflaridan biri Durposhsho Xudaynazarovadir.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoira Go'zal Begim serqirra ijodkor haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Shoiraning g'azallari, muxammaslari, ruboilyarida ham sokin g'alayon, mumtoz isyonlarni uchratish mumkin. Til jozibasi, badiiy umumlashma ohangrabosi, ruhiyat jazbasining bu dunyoga qovusha olmagan pinhon- oshkor hasrati...milliy adabiyotimizdan o'sib chiqqan SHE'Rning adl bo'yini ko'rsatadi".

O'zbek sheriyatida sayqallanmagan gavhar singari bahosi bebaho ijodkorlar sanoqli. Shunday gavharlardan biri bo'lgan shaxs shoira Durposhsho hisoblanadi. "Sayqallanmagan gavhar" deganimning boisi shuki, u o'z she'rlarida o'z tuyg'ularini ochiqdan oshkor ifoda etmaydi. Uning she'rlarida o'zbek ayollariga xos nafosat, joziba hamda sirlilik mavjud. Shuning uchun men shoira Durposhshoni "tuyg'ularin gulga o'ragan shoira" deb atadim.

Shoira: "Ayollarning sheriyatি pardali-hijobli bo'lishi kerak. Hozir ayollar sheriyat beparda bo'lib ketgan ...", -deb ta'kidlaydi. Shoiraning hayo chimmatiga o'rangan sheriylarida buni yaqqol sezish mumkin. Ijodkorning she'rlari, asosan, tasavvufiy ohangda yozilgan. Buni uning "Bir tutam yog'du" nomli sheriyy to'plamiga kiritilgan ushbu sheriyan ham bilib olish mumkin:

Kotibi azal nechun hayrona yozildi ishq?

Ko'ngil yanglig' muhtasham vayrona yozildi ishq.

Dunyo misli bir bozor, goh diloro, dilozor,

Xalq qilingan har oshkor –pinhona yozildi ishq.

Shajaram-ulug' Kubro, manzilim –Haq Mustafo,

“La ilaha illalloh” –to‘fona yozildi ishq.

Senga aslingdan saboq: Alloh-bir, Rasul- barhaq,

Dor ostida “Anal Haq” –tug‘yona yozildi ishq.

Navoiy –tubsiz ummon, beedad ham bepoyon,

Nasimiy, Mashrab, Usmon, isyona yozildi ishq.

O‘zin topmay ovvora, chorasiszga na chora ?

Biz kabi zor, bechora, ostona yozildi ishq.

Yo‘lga chiqqan hur habib, ahli dilni axtarib,

Durposhshoday xor, g‘arib, karvona yozildi ishq.

Bir qarashda ushbu she’rda botiniy ishq tasvirlangandek tuyulishi mumkin, biroq bu she’r tom ma’noda zohiriyligi ishqni tarannum etuvchi she’r hisoblanadi. Shoira ikkinchi baytda dunyoni bozorga o‘xshatadi. Bu “bozor”da esa insonning boshiga turli savdolar tushadi.

Durposhsho Xudaynazarova nafaqat nazmda, balki nasrda ham ijod qiladilar. U yosh avlodning tarbiyasiga bee’tibor bo‘lmagan holda, bolalar uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hikoyalar ham yozadi. Jumladan, ijodkorning ikkita hikoyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilayotgan “Hadisdan saboqlar” deb nomlangan to‘plamga kiritilgan. Ayniqsa, uning to‘plamdan o‘rin olgan “Ota –onangni haqorat qilma “ deb nomlangan hikoyasi chuqur ma’noga egaligi bilan boshqa hikoyalardan ajralib turadi. Hikoyada insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi payg‘ambarimiz (s.a.v) so‘zlari, hadislar haqida mulohaza yuritiladi. Hikoya to‘rt murg‘ak bolakayning o‘zaro suhbati bilan boshlanib, so‘ng suhbat hadislarga ulanib ketadi. Bolalar orasida Abdurazzoqjon bobosining: “Kim o‘nta hadisni yod olib, o‘nta do‘sriga o‘rgatsa, kelajakda hamma orzulari, albatta, ushaladi”, -degan fikrlarini aytganda, bolalarning dilida cheksiz hayrat aks etadi. Bolalar hadislarni birma-bir o‘qib, uqib borar ekan, ularning dilida ezgulik tuyg‘usi yuksala boshlaydi va ikkinchi hadis aytliganda bolalardan biri do‘stini haqorat qilib, uning dilini og‘ritganini tushunib yetadi. Ikkinchi hadisning ma’nosini quyidagicha edi: ”Musulmon kishiga uch kundan ortiq arazlab yurish halol emas”. Biroq yosh yigit do‘stidan kechirim so‘rashni istamaydi. Shunda Sharif bobo yigitga birovning ota-onasi haqoratlagan inson o‘z ota-onasini haqoratlagan bo‘lishini uqtiradi. So‘ng bolakay qilgan ishidan uyalib, do‘stidan kechirim so‘rashga ahd qiladi.

Shoiraning har bir she’ri uning qalb kechinmalari bilan hamohanglashib, uyg‘unlashib ketgan. Shoir Erpo‘lat Baxt ijodkorni “ruhiyati olovqushga evrilgan shoira “deb ataydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, Durposhshoning ko‘plab she’rlari Rahmat Bobojon tomonidan o‘zbekchadan turkchaga ham tarjima qilingan.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Durposhsho. Bir tutam yog‘du. Xorazm: “Xorazm yoshlari” 2022-yil.
- 2.Tuzuvchi: Xurshida Xamroqulova. Har kunning bir sabog‘i. Toshkent-2023.